

YOSHLAR UCHUN MOTIVATSIYA, MAQSAD VA MUVAFFAQIYAT

Ilmiy raxbar: **Abdugʻaniyev Javohirmirzo Davlatmirza oʻgʻli**

Andijon Davlat Texnika Institutini oʻqituvchisi
javohirmirzo3732@gmail.com

Talaba: **Usmonov Beksulton Mirzohid oʻgli.**

Andijon Davlat Texnika Institutini 1- bosqich talabasi.
beksultonusmonov16@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning kelajakga tayyorligini aniqlash, yoshlarga muvaffaqiyatga erishish uchun kerak boʻladigan goʻya va amallar haqida aytib oʻtilgan. Bugungi dunyoda tez oʻzgarayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sharoitlar yoshlarni oʻz orzu va maqsadlariga erishishda samarali yondashuvlarni izlashga majbur qilishi haqida yoritilib ular uchun motivatsiya berilgan.

Annotation. The article talks about determining the readiness of young people for the future, the actions and actions that young people need to achieve success. The rapidly changing social, economic and technological conditions in today's world force young people to look for effective approaches to achieving their dreams and goals.

Аннотация. В статье говорится об определении готовности молодежи к будущему, действиях и поступках, которые необходимы молодым людям для достижения успеха. Быстро меняющиеся социальные, экономические и технологические условия в современном мире заставляют молодых людей искать эффективные подходы к достижению своих мечтаний и целей.

Kalit soʻzlar: Potensial, Facebook, Motivatsiya, Chirigan tizim.

Keywords: Potential, Facebook, Motivation, Broken System.

Ключевые слова: потенциал, Фейсбук, мотивация, Сломанная система.

Hurmatli yoshlar, hozirda oʻqiyotgan maqolangiz sizni hozirgidan kuchliroq, hozirgidan bilimlir va hozirgidan samaralir boʻlishga undaydi. Birinchi oʻrinda motivatsiyaga toʻxtalsak. Motivatsiya — bu insonning oʻz maqsadlariga erishish uchun energiya va harakatni kuchaytiradigan ichki yoki tashqi kuch deb qarash boʻladi. Sizlar uchun harakatdan toʻxtatmaydigan, qilayotgan ishingizga boʻlgan qiziqishingizni ortirishi uchun bir qancha motivatsiyon soʻzlar va iboralar keltirib oʻtaman. Yodingizda tursin: “hech narsa va hech qachon osonlik bilan amalga oshmaydi. Oʻz fikrida sobit turuvchilar, buni qila olmaganlar tomonidan tanqidga uchraydi. Chirigan tizim siz adashayotganingiz haqida qancha koʻp gapirsa, siz oʻz

maqsadingiz sari shuncha qat'iylik bilan harakat qilishingiz kerak". Bu Donald Tramp AQSh prezidenti tomonidan aytilgan so'z, siz uning negizida nima yotyatganiga e'tibor bering. Bunda yoshlarning muvaffaqiyatga erishish davomida kelgan qiyinchiliklarni yengishga, sabr qilishga, o'z maqsadingiz yo'lida sobit turishingizga va shundagina natijaning rohatini ko'rishga muvaffaq bo'lasiz. Endi esa maqsad haqida gapirsak: "Maqsad – bu siz katta nimaningdir bir qismi ekaningiz, siz bu dunyoga kerak ekaningiz va oldinda sizni faqatgina yaxshi narsalar kutayotganini tushunishdir. Maqsaddan haqiqiy baxt ham boshlanadi". Bu gaplar Facebook asoschisi Mark Tsukerbergga tegishli. Bundan hulosa qilish kerakki maqsad odamni yashashga, harakat qilishga va natijaga intilishga undaydi. O'zingizdan so'rang, sizni nima yaxshi qiladi va siz nimadan qo'rqasiz. Siz aynan shu yo'ldan ketishingiz lozim shundagina harakat qilayotganingizni his qilasiz. O'zingizni oddiy tahlil qilish hayotingiz ishini topishiga kafolat bermaydi. Siz nazariyadan amaliyotga o'tishingiz, o'qishingiz va real hayotni o'rganib borishingiz, tajriba orttirishingiz lozim. Agarda qandaydir ish sizni ilhomlantirsa, buni qilishda davom eting. Men taniydigan o'z ishining haqiqiy professionallari o'z ishlarini juda sevishadi. Ularga o'z maqsadini bilish motivatsiya beradi [1].

Hozirda jadal rivojlanayotgan ilm-fan, texnika sizni ulardan samarali va foydali tarzda ishlatishga undaydi. Hozirgi kunda biron malumot topish uchun hatto bitta telefonni o'zi kifoya qiladi. Bunday zamonda siz ham rivojlanishingiz, o'z ishingizda zamonaviy tenalogiyalardan unumli foydalanishingiz zarur, doimo zamon bilan hamnafas yashashingiz sizni rivojlanishingizda asosiy ro'l o'ynaydi. Tan oling, motivatsiyani his qilish, ehtimol, siz qila oladigan eng qiyin ishlardan biridir. Agar bu juda oson bo'lganida, har bir kishi oldinga siljib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgan bo'lardi.

Muvaffaqiyat esa, faqatgina ba'zi yutuqlar bilan bog'liq emas, balki insonning o'z potentsialini to'liq ochish, o'z hayotini ma'naviy va ruhiy jihatdan rivojlantirish jarayoni deb tushunsak bo'ladi. Muvaffaqiyat tushunchasi haqida qancha gapirilsa ham uni tariflash uchun yangi so'zlar chiqib kelaveradi. Jorj Pattonning fikricha: "Muvaffaqiyat bu — yerga urilgach, iloji boricha balandroqqa sakrash degani" [2].

Har kim muvaffaqiyat omilini o'zicha tasavvur qiladi. Kim uchun muvaffaqiyatning yagona siri odamlarning ko'ngliga yo'l topish bo'lsa, boshqalar uchun erta uyg'onish, qattiq mehnat qilish — bu muvaffaqiyatning tarkibi. Demak mulohaza qilsak muvaffaqiyat bu nisbiy tushuncha har kim muvaffaqiyatni nimagadur nisbatan o'lchaydi. Shunday ekan siz o'z muvaffaqiyatingizni kichik va mayda narsalarda emas balki ulkan ishlarning natijasida qarang shundagina siz anchagina masuliyat, g'ayrat

va shijoat bo‘ladi. Aksariyat muvaffaqiyatli insonlar hayotini sinchiklab o‘rgansangiz, hayot ularni qiyinchiliklar bilan qanchalar toblaganini ko‘rasiz. Ularning avvalgi va keyingi hayotlarini solishtirar ekansiz, tunning eng qorong‘u lahzalari tong otishidan bir necha daqiqa avvalroq sodir bo‘ladi, degan hikmatni anglaysiz. Siz muvaffaqiyat yetti marta qulab, sakkizinchi marotaba oyoqqa turish ekanini tushuna boshlaysiz. Shu pallada Pablo Pikassoning fikrini o‘qib ketsak: “Har qanday muvaffaqiyatning kaliti harakatdir”[3]. Demak hamma narsa o‘zingizning harakatingizga bog‘liq bo‘ladi.

Bir ishda muvaffaqiyatga erishish uchun oldin shu ishga qiziqishingiz kerak. Bu ishda qilinishi kerak bo‘lgan barcha narsalarda o‘zingizni sinab ko‘rishingiz, bo‘lmagan taqdirda bo‘lishiga qarab harakat qilishingiz kerak bo‘ladi. Men o‘z muvaffaqiyatimga erishish uchun oldin o‘zimni shunday tarbiyalab borishim kerak. Hattoki o‘zimni “sulton”lardek tutish uchun ismimni ham Beksulton qilib o‘zgartirganman. Bu bilan sizlarga ismingiz yoki sharifingizni o‘zgartirish emas balki muvaffaqiyat yo‘lida o‘zingizni shunga munosibdek ko‘rishni tushuntirmoqchiman. Lekin shuni unutmang muvaffaqiyatga erishish uchun qiziqishni o‘zi kifoya emas albatta maqsad ham bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Xalilova, S. (2024). Talabalarning Bilim Ko‘nikmalarini Rivojlantirishda O‘quv Motivatsiyaning Ahamiyati. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 575-58
2. Кибанов А.Я. и др. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: Учебник. — М.: Инфра-М, 2012. — 524 с.
3. Personal Mativtsiya Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent — 2019
4. Kun uz sayti 1-avgust 2017-yil nashiridan.
5. Xabar uz tashkiloti